

Namangan viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2026-yil yanvar-iyun oyi uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026- yilning yanvar-iyun oyida, Namangan viloyatida jami 8 365,8 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 113,4 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamika



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Namangan viloyati	8 365,8	113,4
Mingbuloq tumani	437,9	210,4
Kosonsoy tumani	333,0	112,7
Namangan tumani	295,9	108,8
Norin tumani	222,7	104,5
Pop tumani	392,9	103,9
To'raqo'rg'on tumani	233,2	109,8
Uychi tumani	910,0	115,7
Uchqo'rg'on tumani	384,9	116,6
Chortoq tumani	371,6	108,3
Chust tumani	350,0	122,4
Yangiqo'rg'on tumani	305,0	117,0
Namangan shahar	1 874,6	116,0
shundan		
Davlatobod tumani	844,3	122,9
Yangi Namangan tumani	416,7	137,2
Taqsimlanmagan	2 254,1	103,5

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-iyun oyida Namangan viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 75,0 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 121,3 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 10,4 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 54,6 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 14,6 % ulushni va 2025-yilning mos davriga nisbatan 197,8 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd. so'm	470,2	525,9	58,1
<i>o'sish sur'ati, %</i>	<i>3,9m</i>	<i>170,4</i>	<i>120,2</i>
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd. so'm	2 300,8	341,5	1 160,8
<i>o'sish sur'ati, %</i>	<i>130,9</i>	<i>26,7</i>	<i>204,4</i>
Norasmiy sektor hajmi, mlrd. so'm	3 508,5	-	-
<i>o'sish sur'ati, %</i>	<i>106,4</i>	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar-iyun oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 054,2 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 220,8 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 6,1 % ga ko'payib, 12,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 45,5 % i to'g'ri kelib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 3,4 % ga kamayib. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 105,5 % ni tashkil etgan holda 3 803,1 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 41,9 % mos davriga nisbatan 2,7 % ga kamaygan yoki 3 508,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 106,4 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Namangan viloyati	1 054,2	3 803,1	3 508,5	220,8	105,5	106,4
Mingbuloq tumani	63,4	300,4	74,1	14,7m	217,3	113,0
Kosonsoy tumani	3,1	145,1	184,8	67,2	115,3	112,0
Namangan tumani	23,6	164,7	107,6	164,2	102,9	110,3
Norin tumani	4,1	106,0	112,6	157,7	96,8	111,5
Pop tumani	206,8	109,3	76,8	110,6	87,1	117,1
To'raqo'rg'on tumani	6,8	130,4	96,0	95,3	107,2	114,9
Uychi tumani	320,4	481,1	108,4	5,2m	76,1	115,7
Uchqo'rg'on tumani	10,0	213,5	161,4	43,8	130,2	112,6
Chortoq tumani	24,6	227,9	119,2	5,0 m	100,2	107,5
Chust tumani	36,8	170,9	142,3	3,8m	114,3	112,1
Yangiqo'rg'on tumani	4,9	150,7	149,4	56,6	123,6	114,7
Namangan shahar shundan	273,3	1 395,6	205,7	3,2m	104,2	107,4
Davlatobod tumani	187,2	635,7	21,3	8,0m	98,8	105,5
Yangi Namangan tumani	81,0	310,5	25,1	187,7	130,8	109,0
Taqsimlanmagan	76,4	207,5	1 970,2	114,4	109,6	102,5

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Mingbuloq tumani (2025-yilning mos davriga nisbatan 14,7m), va Uychi tumanida (5,2m) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Mingbuloq tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 217,3 %) va Chust tumanida (114,3%) kuzatildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Yangiqo'rg'on tumani (2025-yilning mos davriga nisbatan 114,7%), Uchqo'rg'on tumanida (112,6%) va To'raqo'rg'on tuman (114,7%) qayd etildi.

V. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.